

Og'ir toifaga kiritilgan mahallalarda o'rganish ishlari davom etmoqda

// 24.06.2025

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/og-ir-toifaga-kiritilgan-mahallalarda-o-rganish-islari-davo>



"Kambag'allikdan farovonlik sari" davlat dasturini amalga oshirish doirasida "O'zkiyosanoat" AJga biriktirilgan hududlarda tizimli va maqsadli ishlar muntazam nazorat qilinmoqda.

Jamiyat ishchi guruhi "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisiga biriktirilgan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi og'ir toifadagi "Obod", "Bozortepa", "Ayridevol" va "Chashmaimiron" mahallalarida navbatdagi o'rganish ishlarini olib bordi.



Mahallalarda aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash (ariqlarni betonlashtirish, elektr tarmoqlarini yangilash kabi) yo'nalishlarida amalga oshirilgan ishlar o'rganildi.

Ushbu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilashga qaratilgan ishlar doimiy nazoratda.









"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati